

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.R.Shermatov, B.D.Abdikaxorov Zararkunanda tangachaqaqnotlilar populyatsiya zichligini monitoring qilish uslublari	333
M.R.Shermatov Farg'ona vodiysi agroekotizimlari metall tusli tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae, Plusiinae)	338
B.M.Sheraliyev Dukentsoy daryosi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi	343
B.Sh.Sheraliyev, O.S.Azamov, M.M.Raxmonov, Sh.A.Xalimov Isfayramsoy daryosi quyi oqimi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi	347
E.X.Najmiddinov, X.Z.To'ychiyeva Farg'ona vodiysi suv omborlarida uchraydigan baliqlar gelmintofaunasi	353
E.X.Najmiddinov Farg'ona vodiysi baliqchilik xo'jaliklarida yetishtiriladigan baliqlar gelmentofaunasi	357
E.X.Najmiddinov Oq do'ngpeshona balig'i gelmintozi kasalliklariga qarshi antigelmintik preparallarni qo'llash usullari	360
M.M.Yunusov, M.M.Abduhalimova Shiralarning qishki tinim holati	363
M.M.Yunusov, M.M.Abduhalimova Shiralar biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari	366
M.M.Raxmonov, O.S.Azamov, B.M.Sheraliyev Shohimardonsoy-Marg'ilonsoy daryosi ixtiofaunasining (Teleostei: Actinopterygii) yangilangan turlar ro'yxati va muhofaza maqomi	371
M.A.Axmadjonova <i>Lixus bardanae</i> J.C.Fabricius, 1787 (Coleoptera: Curculionidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi haqida	377
Sh.A.Xalimov, A.M.Inomov, B.M.Sheraliyev Farg'ona viloyati zovurlarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning uzunlik va og'irlik munosabatlari	381
Sh.A.Xalimov Farg'ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning tarqalishi va geoaxborot ma'lumotlari	387
Sh.B.Yo'ldashev O'zbekiston gerpetofaunasining tur tarkibi	393
Ahmadjonova Sadoqatxon, S.A.Adxamova Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan o'rgimchak turlarining sistematik tahlili va ro'yxati	399
S.Sh.Axmadjonova Ayrin ov to'ri hosil qilmaydigan o'rgimchak oilalarining biologik xususiyatlari	403
S.Sh.Axmadjonova Spilberger – xanin testi orqali talabalarning nerv zo'riqishlarini aniqlash	407
B.X.Baxromova Farg'ona vodiysi o'rgimchaklarining molekulyar identifikatsiyasi natijalari	411
B.X.Baxromova O'rgimchak turlarini aniqlashda tutqich to'rlarini ahamiyati	417
B.X.Baxromova, N.G.Odilova Farg'ona vodiysida uchrovchi o'rgimchak oilalaridan Thomisidae oilasiga kiruvchi muhim turlarning biologiyasi	422
E.A.Botirov <i>Catocala elocata</i> (Esper, 1788) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfologiyasi va bioekologik xususiyatlari	427
E.A.Botirov <i>Arctia caja</i> (Linnaeus, 1758) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfologiyasi va bioekologik xususiyatlari	430
S.M.Isag'aliyeva Tabiiy fanlarda funksional topshiriqlar	434



UO'K: 595.44

**MARKAZIY FARG'ONA HUDUDIDA TARQALGAN O'RGIMCHAK TURLARINING
SISTEMATIK TAHLILI VA RO'YXATI****СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И СПИСОК ВИДОВ ПАУКОВ,
РАСПРОСТРАНЕННЫХ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****SYSTEMATIC ANALYSIS AND LIST OF SPIDER SPECIES DISTRIBUTED IN CENTRAL
FERGANA AREA****Ahmadjonova Sadoqatxon¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, umumiy biologiya va zoologiya kafedrasida dotsenti**Adxamova Sevaraxon Abdusalim qizi²** ²Farg'ona davlat universiteti, magistr**Annotatsiya**

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Farg'ona araxnofaunasining xilma-xilligini o'rganish va tarqalish arealini hududlar kesimida tahlil qilishdan iborat. Maqolada Markaziy Farg'ona araxnofaunasini o'rganish maqsadida Markaziy Farg'ona hududining Yozyovon, Oltiariq, Toshloq, Qo'shtepa, Bog'dod, Rishton, Mingbuloq, Ulug'nor tumanlarida 2023-2024-yillarda olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar natijalari taqdim etilmoqda. Tadqiqot natijasida 9 oila 11 urug'ga mansub 13 tur aniqlanganini ma'lum qilamiz. Aniqlangan turlarning sistematik o'rni aniqlagichlar, xalqaro bazalar ma'lumotlari va boshqa tadqiqotchilarning araxnofaunistik kuzatuv ishlari natijalari bilan solishtirildi. Turlarning morfologiyasi o'rganildi va morfologik belgilar taqdim etildi. Hududda qayd etilgan turlar ro'yxati shakllantirildi va kordinatalar olindi.

Аннотация

Цель исследования — изучить разнообразие арахнофауны Центральной Ферганы и проанализировать ареал распространения в разрезе регионов. В статье представлены результаты наблюдений и исследований, проведенных в 2023-2024 годах в Языеванский, Алтыарыкский, Ташлакский, Куштелинский, Багдадский, Риштанский, Минбулакский, Улуенорский районах Центрально-Ферганской области с целью изучения арахнофауны Центральной Ферганы. Сообщаем Вам, что в результате исследований выявлено 13 видов, принадлежащих к 9 семействам и 11 родам. Систематическое положение выявленных видов сопоставлено с данными определителей, международных баз данных и результатами арахнофаунистических наблюдений других исследователей. Изучена морфология вида и представлены морфологические признаки. Составлен список видов, отмеченных на территории, и получены координаты.

Abstract

The purpose of the study is to study the diversity of the arachnofauna of Central Ferghana and to analyze the area of distribution in the region. The article presents the results of observations and research conducted in 2023-2024 in Yazyavan, Altyaryk, Tashlak, Qushtepa, Bahdad, Rishtan, Mingbulak, Ulugnor districts of the Central Fergana region in order to study the arachnofauna of Central Fergana. We inform you that 13 species belonging to 9 families and 11 genera were identified as a result of the research. The systematic position of the identified species was compared with the data of identifiers, international databases and the results of arachnofaunistic observations of other researchers. The morphology of the species was studied and morphological characters were presented. A list of species recorded in the area was compiled and coordinates were obtained.


Kalit so'zlar: Markaziy Farg'ona, o'rgimchak, araxnofauna, hudud, tur, sistematik, morfologik.**Ключевые слова:** Центральная Фергана, паук, арахнофауна, область, вид, систематическое, морфологические.**Key words:** Central Fergana, spider, arachnofauna, area, specie, systematic, morphology.**KIRISH**

Hozirgi kunda Markaziy Farg'ona hududi o'zining boy flora va faunasi bilan uzoq asrlar davomida olimlar va ilmiy tadqiqotchilarning qiziqishini o'ziga jalb etib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga 2017-yil 22-23-iyun kunlaridagi tashrifida Markaziy Farg'ona mintaqasida qishloq xo'jalik ekinlarini tarkibini qayta ko'rib chiqish va infratuzilmani takomillashtirish

borasida bir qator vazifalarni yukladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi, Farg'ona viloyati hokimligi va Farg'ona davlat universiteti olimlari tomonidan Markaziy Farg'ona mintaqasi tabiati va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Bunda asosiy e'tibor Markaziy Farg'ona mintaqasida qulay ekologik holatni saqlash, biologik va landshaft xilma-xilligini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish masalalariga qaratilishi hudud flora va faunasini chuqurroq tadqiq etish zaruratini vujudga keltirdi. Markaziy Farg'ona hududi misolida araxnofaunaning keng ko'lamda tadqiq etish mazkur yo'nalishdagi nazariy va amaliy ahamiyatga ega muammolarni tahlil etish imkoniyatini beradi. Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan turlar ro'yxati shakllantirilmaganligi va tadqiq etilmaganligi diqqatimizni tortdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotlarimiz 2022-2023-yillar davomida Yozyovon, Oltiariq, Qo'shtepa, Rishton, Bog'dod, Toshloq, Marg'ilon, Mingbuloq, Ulug'nor tumanlari va shu hududlarga chegaradosh tumanlarda olib borilgan. (1-rasm). Markaziy Farg'ona hududi araxnofaunasini o'rganish maqsadida olib borilgan kuzatuv tadqiqoti natijasida 50 ga yaqin individlar ro'yxatga olindi. Ro'yxatga olingan individlarning taksonomik o'rni aniqlandi. Tadqiqot natijasida 9 oila 11 urug'ga mansub 13 tur aniqlandi va taksonomik jihatdan tahlil qilindi.



1-rasm

Araxnofaunistik kuzatuvlar amalga oshirilgan hududlar.

O'rgimchaklarni tutish jarayonida entomologik usullardan foydalanib, o'rgimchaklar yashaydigan joyga, o'rgimchak yashash tarzining kun va tun oralig'iga qarab (tunda aktiv yashovchilari uchun alohida) flakonlar, probirkalar, pinset, plastik chelak, Barbera qopqoni, choyshablar, matraplar, eksgausterlar yordamida na'munalar to'plandi. O'rgimchaklarning turlarini aniqlashda va ularning morfologik jihatdan tahlil qilishda xalqaro ma'lumot bazalari: Global Biodiversity Information Facility (www.gbif.org) [10], World Spider Catalog (wsc.nmbe.ch) [8], iNaturalist (www.inaturalist.org) [9] va boshqalardan foydalanildi. O'rgimchaklarning o'rganilish tarixiga nazar salsak O'zbekiston araxnofaunasi dastlab A.Kroneberg [4], D.Xaritonov [3], N.Ergashev [2] lar tomonidan o'rganilgan. Farg'ona vodiysidagi o'rgimchaklar faqatgina B.Baxromova "Farg'ona vodiysi o'rgimchaklari faunasi va ekologiyasi" ni o'rgangan va uning

BIOLOGIYA

ma'lumotlariga ko'ra Farg'ona vodiysida uchraydigan o'rgimchaklar 20 oila, 33 urug'ga mansub 44 turdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi [1]. Baxromova tadqiqotlarida Farg'ona vodiysining turli biotsenozlarida uchraydigan o'rgimchak turlarini kuzatib, ushbu biotoplarda uchraydigan o'rgimchaklarning faunistik tarkibi bir biridan sezilarli farq qilishini qayd etgan [7]. Hozirgi kunda Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan o'rgimchak turlari bo'yicha keng ko'lamda tadqiqotlar olib borilmoqda[5],[6].

NATIJA VA MUHOKAMA

Markaziy Farg'ona hududi bo'ylab o'tkazilgan kuzatuv-tadqiqot ishlari hudud araxnofaunasining holati, tur tarkibi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni olish imkonini berdi. Yig'ilgan va o'rganilgan namunalar natijasida o'rgimchaklar turkumining natijasida 9 oila 11 urug'ga mansub 13 tur aniqlandi va taksonomik jihatdan tahlil qilindi. (1-jadval).

1-jadval

Markaziy Farg'ona hududida uchrovchi o'rgimchaklar ro'yxati

Oila	Tur nomi	Muallif	Viloyat	Shaxar/Tuman
Araneidae	<i>Argiope bruennichi</i>	Skopoli, 1772	Namangan, Farg'ona	Mingbuloq, Oltiariq,
	<i>Argiope lobata</i>	Pallas, 1772	Andijon	Ulug'nor
Filistatidae	<i>Zaitunia ferghanensis</i>	Zonstein & Marusik, 2016	Farg'ona	Oltiariq
Linyphidae	<i>Gnathonarium dentatum</i>	Wider, 1834	Farg'ona	Yozyovon
Lycosidae	<i>Pardosa zonsteini</i>	Ballarin, Marusik, Omelko & Koponen, 2012	Farg'ona	Yozyovon
Salticidae	<i>Heliophanus potanini</i>	Schenkel, 1963	Farg'ona	Bog'dod
	<i>Langona tartarica</i>	Charitonov, 1946	Andijon	Ulug'nor
	<i>Philaeus chrysops</i>	Poda, 1761	Farg'ona, Namangan	Rishton, Oltiariq, Mingbuloq
Scytodidae	<i>Scytodes strandi</i>	Spassky, 1941	Farg'ona	Marg'ilon
Sparassidae	<i>Olios sericeus</i>	Kroneberg, 1875	Farg'ona	Oltiariq, Rishton, Yozyovon
Theridiidae	<i>Steatoda paykulliana</i>	Walckenaer, 1806	Farg'ona	Uchko'prik
	<i>Steatoda triangulosa</i>	Walckenaer, 1802	Farg'ona	Oltiariq
Thomisidae	<i>Ozyptila atomaria</i>	Panzer, 1801	Farg'ona	Bog'dod

Olingan bu ma'lumotlar nisbiy bo'lib, hudud areali to'liq o'rganilgach va to'liq kuzatuv natijalaridan so'nggina hududda tarqalgan turlar o'rgimchak populyatsiyalari to'g'risida yagona xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

XULOSA

Olingan natijalarga ko'ra xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Farg'ona hududi o'zining faunistik va floristik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hududda o'rgimchak larning tur tarkibini aniqlash kelgusida mamlakatimizning to'liq araxnofaunistik tur genofondini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахромова Б. Х. Фарғона водийси ўргимчаклари (Arachnida: Araneae) фаунаси ва экологияси. Автореферат. Фарғона, 2022. - 44.
2. Эргашев Н.Э. Экология ядовитых пауков Узбекистана. "ФАН" Ташкент. – 1990.

3. Харитонов Д.Е. Пауки Araneina // Животный мир СССР. Зона степей. М.; Л., 1950. т. 3. с. 441 - 451.
4. Кронеберг А. Пауки // А.П.Федченко Путешествие в Туркестан Известия императорского общества любителей естествознания антропологии и этнографии, Том XIX, выпуск 3, С-Петербург, Москва, 1875, 56 с.
5. Ahmadjonova S., Adxamova S. Mangora acalypha. Journal of new century innovations. 34(1), 2023. 93-96.
6. Ahmadjonova S., Adxamova S. Farg'ona vodiysi sharoitida *Aelurillus dubatolovi* (Azarkina, 2003) o'rgimchagining (arachnida: araneae) biologiyasi va ekologiyasi. // International scientific journal "Interpretation and researches", 1 (23), (2024), 42-44.
7. Bakhromova B. The brief history of the study of spiders (Arachnida: Araneae) in Fergana Valley. // European Sciences Review, 9-10, (2018), 16-18.
8. World Spider Catalog (2023). World Spider Catalog. Version 25.0. Natural History Museum Bern, online at <http://wsc.nmbe.ch>, accessed on { accessed 03.2024}. doi: 10.24436/2
9. <https://www.inaturalist.org/>
10. <https://www.gbif.org/>